VOYAGA YETMAGANLAR FEL-ATVORIDA AYRIM NUQSONLARNI BARTARAF ETISHDA JISMONIY-TARBIYANING O‘RNI

Umaraliyev Dadaxon Usmonqul o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Yosh avlod tarbiyasi har doim jamiyat taraqqiyotining poydevori bo‘lib kelgan. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar orasida uchraydigan salbiy fe’l-atvor, axloqiy buzilishlar, huquqbuzarlik holatlari bugungi kunda jiddiy ijtimoiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Bu kabi muammolarni bartaraf etishda ta’lim-tarbiya tizimi, oilaviy muhit, ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda jismoniy tarbiya vositalaridan samarali foydalanish zarur.

Kalit so‘zlar: jismoniy kamolot, jismoniy tarbiya, voyaga yetmagan, jismoniy shaxs.

Turmushda jismoniy barkamollik muhim hayotiy ehtiyoj hisoblanadi. Markaziy Osiyo va boshqa mamlaktlarning iqtisodiy, savdo, tijorat, madaniyat va boshqa sohalardagi o‘zaro aloqalari va hamkorliklari umuminsoniy qadriyatlar, tafakkur va jismoniy jihatdan yuqori madaniyatga erishishga katta hissa qo‘shmoqda. O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida istiqlol sari katta qadamlar bilan olg‘a bormoqda. Buni Respublikamizning juda ko‘p tarmoqlari kabi xalqaro sport maydonlarida erishayotgan ulkan muvaffaqiyatlari va yutuqlari bilan tenglashtirish mumkin.

O‘quvchi yoshlarning jismoniy madaniyat sohasidagi komilligini o‘stirish, ularning o‘zaro mehribonliligi, do‘stligini tarbiyalashda milliy qadriyatlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport o‘z o‘rniga egadir. Madaniyat va an’anaviy bayramlar, marosimlar va turli xil ommaviy sog‘lomlashtirish va sport tadbirlari mazmunida urf-odatlarimiz va xalqaro madaniyat namunalari mujassamlashib, ular tobora boyib bormoqda. Bularni Respublika Prezidenti va hukumatining farmonlari, qarorlari, olib borilayotgan tub islohotlar va tadbirlarning mahsulidir desak xato bo‘lmaydi.

Voyaga yetmaganlar fe’l-atvoridagi nuqsonlarni bartaraf etish va ularning tabiatida ezgu sifatlarni shakllantirishda jismoniy tarbiyaning oiladagi o‘rni haqida fikr yuritish maqsadimizni hosil qiladi. Har bir voyaga yetmaganlarning fe’l-atvoridagi nuqsonlarni bartaraf etish va ularning xarakterida ijobiy,soglom xususiyatlarning shakllanishida jismoniy tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Bu borada oila jismoniy va ijobiy sifatlarni singdirishdagi ilk manbadir. Har bir oila boshlig‘i ota-ona, avvalo soglom bo‘lishni ta’minlaydi va jismoniy tarbiya zamiridagi ko‘p ma’noli mazmunni ilg‘aydigan jismoniy xarakatlarni odatga aylantiradigan bo‘lishi zarur. Bu odat oilada farzand tarbiyasida ijobiy natija beradi. Buning uchun har bir ota-ona tabiyatiga bekorchilik va yalqovlik illatlari begona bo‘lishi shart va zarurdir.

Erinchoqlik bugun voyaga yetmaganlar fe’l-atvoridagi asosiy illatdan biridir. Xo‘sh oilada ota-ona o‘z farzandi fe’l-atvoridagi bu illatni bartaraf etish uchun nima qilishi kerak ? Buning uchun har bir oilada ota-ona oilada soglom muxit yaratib berishi kerak.

Sog‘lom bola-sog‘lom kelajak. Ma’lumki, voyaga yetmaganlar fe’l-atvoridagi ayrim nuqsonlarni bartaraf etish, ular tabiatida ezgu sifatlarni shakllantirish eng dolzarb masaladir. Dangasalik voyaga yetmaganlar fe’l-atvoridagi asosiy nuqsonlardir. Har qanday huquq-buzarlik, jinoyat sodir etilishning ilk ildizi, yuqorida zikr etilgan asosiy nuqsonlardan boshlanadi.

Voyaga yetmaganlar fe’l-atvoridagi nuqsonlardan navbatdagisi bekorchilikdir. Bugungi kunda bekorchilik ayrim voyaga yetmaganlarning asosiy muomala vositasiga aylanib bormoqda. Bu jarayon o‘ta hafli. Oilada ota-onaga o‘z farzandi fe’lidagi bu illatini bartaraf qilishda sportning roli muxim axamiyatga egadir.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida: “Odamzod uchun bir umr zarur bo‘ladigan tabiiy ko‘nikmalar va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o‘ziga mos qobiliyat, atrofdagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o‘zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo‘lishi yoki bo‘lmasligi kerak bo‘lsa, dunyoqarashi-bularning barchasi, avvalo, uning tug‘ma tabiati, shu bilan birga oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanligini hayot tajribasi ko‘p misollarda tasdiqlab beradi”, deya ta’kidlaydi. Sog‘lom bola nafaqat jamiyat tayanchi, balki millatning iftixori, mamlakat tarqqiyotining asosidir. Inson sog‘lom bo‘lsa, buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Ota-onaning shodligi, millatning orzu ishonchi, hayotning ko‘rki va mazmuni farzanddir. Farzand voyaga yetish jarayonida yaxshi sifatlarga ega bo‘lishi kamol topayotgan oilaviy muhitga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq yurtimizda millat genafondini sog‘lomlashtirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadiga aylangan va bu borada ta’lim tizimini takomillashtirish, sog‘lom onalik va bolalikni muhofaza qilish kabi yo‘nalishlarda izchil islohatlar uzviylik, muntazamlilikni kasb etmoqda.

Jismoniy tarbiya yordamida o‘quvchilarga jismoniy va ruhiy tomondan ta’sir ko‘rsatish kabi masalalarni ham hal etish mumkin. Jismoniy va ruhiy faol dam olish va har xil ko‘ngilochar harakatli va milliy o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Buning natijasida o‘quvchilarning ruhiy va jismoniy kuchlari bilan birgalikda har tomonlama rivojlanishiga erishiladi.

Jismoniy tarbiya bir butun pedagogik jarayon sifatida tarbiyaning umumiy vazifalarini ham hal etishga hissa qo‘shadi. Tarbiyaviy vazifalar orasida faqatgina jismoniy tarbiya uchun taalluqli bo‘lganlari ham, umumiy bo‘lganlari ham bor.

Jismoniy tarbiya uchun kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarni tarbiyalash vazifalari xarakterli hisoblanadi.

Tarbiyaning umumiyligiga esa axloqiy, aqliy, irodaviy, mehnat va nafosat tarbiyalari kiradi. Bu vazifalar kelajakda yuksak ma'naviyatli va e'tiqodli shaxsni shakllantirish ehtiyojining bir qator talablariga javob beradi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga jismoniy tarbiya berishning maqsadi ruhiy boylikka, axloqiy poklikka, ma'naviy yetuklikka va jismoniy kamolotga ega, ko'p yillik ijodiy mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlar tomonlama rivojlangan yoshlarni shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganimizda, bizning respublikamizning umumta'lim maktablarida o'quvchilarning sog'lom va baquvvat, har tomonlama kamolotga erishishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bunday sharoitlardan foydalanib o'quvchilarni sog'lomlashtirish pedagoglardan kuchli bilim va katta ma'suliyat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ―"Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 5 sentabr 2015 yil. 174 – son Xalq so'zi gazetasi.
2. J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008., - 3 b.
3. J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008., - 30 b.